

MAKTABGACHA TA'LIM




Maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM) – bu uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalash, o'qitish, nazorat qilish, parvarish qilish va sog'lomlashtirishni ta'minlaydigan ta'lim muassasasi turi. Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadigan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muhim o'rin tutadi. Navoiy viloyatida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 2018 yilda shu yoshdagi aholining 35,3 foizini tashkil etdi. 2019 yil 1 yanvar holatiga viloyatda 175 ta maktabgacha ta'lim muassasalari mavjud bo'lib, ulardagi guruhlar soni 1054 ta, joylar soni 24543 tani tashkil etgan. Jami maktabgacha ta'lim muassasalarining 106 tasi shahar, 69 qishloq joylarda joylashgan.

2018 yilda maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari, birlik

| Maktabgacha ta'lim muassasalari soni | Guruhlar soni | O'rinlar soni | Bolalar soni | 100 ta o'ringa to'g'ri keladigan bolalar soni, bola |
|--------------------------------------|---------------|---------------|--------------|---|
| 175 | 1054 | 24543 | 26938 | 110 |
| Shahar joylarda | | | | |
| 106 | 839 | 19728 | 22001 | 112 |
| Qishloq joylarda | | | | |
| 69 | 215 | 4815 | 4937 | 103 |

Shahar va qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni, hududlar kesimida (2018yil), birlik




- Shahar joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni
- Qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalari soni



2018 yilda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jami bolalar soni 26938 nafarni (o'tgan yilga nisbatan 2206 taga o'sgan), ularning 52 foizini o'g'il bolalar, 48 foizini qizlar tashkil etadi. Tarbiyalanuvchilarning yosh toifalari bo'yicha 2 yoshgacha bolalar soni – 136, 3 yoshdagi bolalar – 5702, 4 yoshdagi bolalar – 6939, 5 yoshdagi bolalar – 7155, 6 yoshdagi bolalar – 6931 nafarni, 7 yoshdagi bolalar esa – 75 nafarni tashkil etadi.

2018 yilda hududlar bo'yicha taqsimlangan holda, 100 ta o'ringa nisbatan hisoblangan bolalarning o'rtacha soni




Har 100 ta o'ringa to'g'ri keladigan bolalar sonini hududlar kesimida tahlil qilinganda Navoiy shahrida, Zarafshon shahrida, Uchquduq, Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlarida o'rinlar etishmasligi kuzatiladi. 100 ta o'ringa 100 dan ortiq bola to'g'ri keladi.



2019 yilning 1 yanvar holatiga maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan jami pedagog xodimlar soni 2891 nafarni tashkil etib, ulardan 30 foizi oliy ma'lumotli, 70 foizi o'rta maxsus pedagogik ma'lumotlilardan iborat. Pedagog xodimlar umumiy sonidan 15 yil va undan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar 23 foizni, shu jumladan qishloq joylarda 17,3 foizni tashkil etadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ish stajlari bo'yicha pedagog xodimlarning soni, 2018 yil



**2019 yil 1 yanvar holatiga hududlar kesimida
maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari, kishi**

| | 2017 yil | 2018 yil |
|------------------------|-----------------|-----------------|
| Navoiy viloyati | 2499 | 2891 |
| <i>shaharlar:</i> | | |
| Navoiy | 948 | 1022 |
| Zarafshon | 408 | 430 |
| <i>tumanlar:</i> | | |
| Konimex | 54 | 62 |
| Karmana | 289 | 368 |
| Qiziltepa | 204 | 239 |
| Navbahor | 90 | 106 |
| Nurota | 160 | 185 |
| Tomdi | 31 | 45 |
| Uchquduq | 221 | 309 |
| Xatirchi | 94 | 125 |

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi*